

**JINOYAT SUDIDA ADVOKAT ISHTIROK ETISHI SHART
BO'LGAN HOLATLAR TAHLILI**

Shukurov Ikrom Qosimovich

Annotatsiya: Jinoyat sudida advokat ishtirok etishi shart bo'lgan holatlari bu O'zbekiston Respublikasi jinoyat-prosessual kodeksining 51-moddasi hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenum qarorlarida keltirib o'tilgan holatlar yuzasidan sud prosessida sudlanuvchining ijtimoiy ahvoli hamda prosessual normalarga ko'ra himoyachining ishtirok etishi talab qilinadigan aks holda prosessual norma buziladigan holatdir.

Kalit so'zlar: Jinoyat, advokat, O'zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenum qarorlari, norma, prosessual.

Huquq sohasida ishtirokchilar turli xil nomlanib, o'ziga xos huquqiy maqomga ega bo'ladi. Ya'ni, har bir ishtirokchi o'ziga xos majburiyat va funksiyalarini bajaradi.

Xususan umumiyyurisdiksiya sudlaridagi prosessning ishtirokchilari bajaradigan vazifalar hamda ularning muhofaza qiladigan manfaatlari bilan bog'liq holda belgilanadi.

Chunonchi, advokat jinoyat prosessida qonunda ko'rsatilgan tartibda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining huquq va manfaatlarini himoya qilish va ularga zarur yuridik yordam ko'rsatish vakolatiga ega shaxs hisoblanadi.

Jinoyat ishlari yurituvida advokatning prosessual maqomini tahlil qilishda 2008 yil 31 dekabrdagi "Advokatura instituti takomillashtirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Qonuni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 12 maydag'i "Advokatura instituti samaradorligini tubdan oshirish va advokatlarning mustaqilligini kengaytirish

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5441-sonli Farmonining ahamiyatini e’tirof etib, mazkur normalar bilan advokatning prosessual vakolati va maqomi yanada oshirilganini alohida ta’kidlash lozim.

Ushbu normalar bilan birgalikda, Advokat O‘zbekiston Respublikasining “Advokatura to‘g‘risida”gi Qonuni normalariga rioya etishi, avvalo, axloqiy soflik tamoyillariga hamda qonunlarga aniq va og‘ishmay amal qilishi talab etiladi.

Amaldagi qonun hujjatlariga binoan jinoyat ishida advokat ishtiroki shaxsni jinoyatda gumonlanuvchi sifatida ushlanganidan oxirgi bosqich ya’ni unga nisbatan hukm yoki ajrim o‘qilguniga qadar ishtirok etish mumkinligi bayon etilganligi to‘g‘risida hatto bosh qomusimiz hisoblangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 116-moddasiga binoan, ayblanuvchi himoyalanish huquqi bilan ta’milanadi, unga tergov va sud ishini yuritishning barcha bosqichlarida malakali yuridik yordam olishhuquqi kafolatlanadi.¹

Himoyachi jinoyat ishlari bo‘yicha gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga uning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoyalash uchun zarur yuridik yordam ko‘rsatish vakolatiga ega25ligi bayon etilgan. Shu o‘rinda bir narsani aytish joizki, himoyachi sifatida faqat advokatlar ishtirok etishi mumkin. Advokat bo‘lmagan shaxs ishda himoyachi sifatida ishtirok etishiga ruxsat berilmaydi.

Advokatning jinoyat ishining barcha bosqichlarida ishtiroki kafolatlangan bo‘lib, bunda taraflardan o‘z xoxish istagiga ko‘ra, advokatdan voz kechishi hamda buning aksi bo‘lmish advokat ishtiroki shart bo‘lgan holatlar ham mavjud.

O‘zbekiston Respublikasining jinoyat-protsessual kodeksining 51-moddasida himoyachi ishtiroki shart bo‘lgan holatlar belgilangan bo‘lib, quyidagi jinoyat ishlari bo‘yicha advokat ishtiroki ishtirok etishi shart:

- 1) voyaga yetmaganlarning ishi bo‘yicha;
- 2) soqovlar, karlar, ko‘rlar, jismoniy nuqsoni yoki ruhiy holati buzilganligi sababli o‘zini o‘zi himoya qilish huquqini amalga oshirishga qiynaladigan boshqa shaxslarning ishi bo‘yicha;

¹ Ўзбекистон Республикаси Конститутцияси 116-моддаси. Т: 08.12.1992 й
www.tadqiqotlar.uz

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- 3) sudlov ishi olib borilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarning ishi bo'yicha;
- 4) jazo chorasi sifatida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bo'lgan jinoyatlarni sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarning ishi bo'yicha;
- 5) shaxslarning manfaatlari o'zaro qarama-qarshi bo'lib, ulardan aqalli biri himoyachiga ega bo'lgan ishlar bo'yicha;
- 6) davlat ayblovchisi yoki jamoat ayblovchisi ishtirok etayotgan ishlar bo'yicha;
- 7) jabrlanuvchining vakili sifatida advokat ishtirok etayotgan ishlarda;
- 8) tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash to'g'risidagi ishlarda;
- 8.1) sud tomonidan dastlabki eshituv o'tkazilayotgan ishlarda;
- 8.) o'ta og'ir jinoyat sodir etganlikda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarga oid ishlar bo'yicha;
- 8.3) shaxsga nisbatan qamoqqa olish yoki uy qamog'i tarzidagi ehtiyot chorasini qo'llash, shuningdek qamoqda saqlash, uy qamog'i muddatini uzaytirish masalasi ko'rib chiqilayotganda;
- 8.4) aybiga iqrorlik to'g'risida kelishuv tuzilgan ishlar bo'yicha;
- 9) apellyasiya va kassasiya instansiyasi sudi tomonidan ko'rildigan ishlarda himoyachining ishtirok etishi shart.

Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud ishning murakkabligi va boshqa holatlari tufayli gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'z huquqlarini amalga oshirishda qiynalishi mumkin degan xulosaga kelsa, boshqa ishlar bo'yicha ham himoyachining ishtirok etishini shart deb topishga haqlidir.²

Agar ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida ko'rsatilgan hollarda gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining iltimosiga ko'ra yoxud ularning roziligi bilan boshqa shaxslar tomonidan himoyachi taklif qilinmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining xududiy boshqarmasi tomonidan belgilanadigan advokatlik tuzilmasi rahbari

² Ўзбекистон Республикаси жиноят-процессуал кодекси. Тошкент 22.09.1994 й

www.tadqiqotlar.uz

22-to'plam 1-son Avgust 2025

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

surishtiruvchining, tergovchining, prokurorning himoyachi tayinlash to‘g‘risidagi qarori yoki sudning ajrimiga binoan qaror yoki ajrim O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining xududiy boshqarma-siga kelib to‘sigan paytdan e’tiboran to‘rt sodatdan kechiktirmay jinoyat ishi bo‘yicha himoyachining ishtirokini ta’minlashi shartligi belgilangan.

Ushbu moddada nazarda tutilgan holatlar gumon qilingan shaxsga, ayblanuvchiga, sudlanuvchiga surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi jarayonida o‘zini himoyalash uchun berilgan qo‘sishimcha kafolat deb tushunilmog‘i lozim. Unda to‘qqiz xil ishlar bo‘yicha himoyachi albatta ishtirok etishi talab qilingan. Bu ishlardan tashqari har qanday jinoyat ishi bo‘yicha haqiqatni aniqlash, dalillar to‘plash, ularni tahlil qilish va baholash hamda foydalanish murakkabligi tufayli surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud himoyachining ishtiroki zarur deb hisoblashi mumkin.

Shuningdek, ushbu moddada nazarda tutilgan ishlar bo‘yicha barcha gumon qilingan shaxslar, ayblanuvchilar, sudlanuvchilar ish yurituvining butkul davomida himoyachi xizmatidan uzliksiz foydalanadilar va har qanday sabablardan qat’i nazar, himoyachisiz qolmasligi lozim.

Sharhlanayotgan moddagning birinchi qismi birinchi bandiga asosan, voyaga yetmaganlarga nisbatan advokat ishtirokida - shaxs o‘n sakkiz yoshga to‘lmasdan sodir etgan jinoyati uchun gumon ostiga olingan, ayblanayotgan, sudlanayotgan shaxs, ish bo‘yicha surishturuv, dastlabki tergov yoki sud muhokamasi o‘tkazilayotgan vaqtida voyaga yetgan bo‘lsa-da, himoyachi bilan ta’minlanmog‘i shart.

Shuningdek, Oliy sud Plenumining 2000 yil 15 sentyabrdagi “Voyaga yetmaganlarning jinyatlari haqidagi ishlar bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi 21-son Qarorining 3-bandiga muvofiq, voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilingan jinyaot ishlari sud muhokamasiga qo‘yilganda ayblanuvchi voyaga yetgan-yetmaganligidan qat’i nazar, advokat ishtirok etishi shart ekanligi nazarda tutilgan³.

³ Ўзбекистон Республикаси Олий суд Пленум қарори. 15.09.2000 й

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Qoida o‘rnida shuni aytish lozimki, voyaga yetmagan shaxs JPKning 52-moddasiga asosan advokatdan voz kechish istagi bo‘lsada, tadbiq etilmaydi.

Mazkur prosessual qonun talablariga rioya qilinmaslik JPKning 419 hamda 487-moddalarga asosan, hukmnинг bekor bo‘lishiga asos bo‘ladi.

Sharhanayotgan moddaning birinchi qismi ikkinchi bandiga asosan, holat yuzasidan aqli norasolik holatida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan, shuningdek, ish bo‘yicha surishtiruv, dastlabki tergov yoki sud muhokamasi yuritilayotganda ruhiy kasallikka uchrangan shaxs, uning aqli rasoligini aniqlash uchun sud-psixiatriya ekspertizasi tayinlangan paytdan boshlab, ya’ni uning aqli norasoligi aniqlanganidan ilgariyoq himoyachi bilan ta’milanmog‘i lozim.

Bunda, ushbu kodeksning 571-moddasining 4-qismida nazarda tutilgan hol bo‘yicha sud-psixiatriya ekspertizasining xulosasiga ko‘ra, himoya ostidagi shaxs ruhiy holatining buzilishi jinoyat sodir etilgandan so‘ng yuzaga kelgan yoki u ijtimoiy xavfli qilmishni aqli norasolik holatida sodir etgan bo‘lsa yoxud uning aqli rasoligini istisno etmaydigan, biroq ruhiy holati o‘zini himoya qilish huquqini mustaqil amalga oshirishini qiyinlashtiradigan tarzda buzilgan bo‘lsa, ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan himoyachining ishda ishtirok etishi shartligi haqidagi qoida amal qilishda davom etishi belgilangan. Bundan tashqari ruhiy kasalligi yoki jismoniy kamchiliklari sababli himoyalanish huquqini amalga oshirishda qiynaladigan shaxslar sud-psixiatriya ekspertizasi tomonidan aqli raso deb hisoblangan hollarda ham himoyachining yordamidan foydalanishlari, himoyachi bilan ta’milanishlari shartligi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2003 yil 19 dekabrdagi “Gumon qilinuvchi va ayblanuvchini himoya huquqi bilan ta’minalashga oid qonunlarni qo‘llash bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi qarori bilan o‘z tasdig‘ini topgan.⁴

Sharhanayotgan moddaning birinchi qismi uchinchi bandiga asosan, sudlov ishi olib borilayotgan tilni bilmaydigan shaxslarning ishi bo‘yicha ham advokat ishtirok etishi shart bo‘lib, bunday shaxsning o‘z huquq va manfaatlarini to‘liq va har tomonlama himoya olishga qodir emasligi, uning ishga oid holatlar

⁴ Ўзбекистон Республикаси Олий суд Пленум қарори. 19.12.2003 й
www.tadqiqotlar.uz

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

yuzasidan o‘z fikrini mustaqil bayon eta olmasligi bilan belgilanadi. Himoyachi ishtiroki esa mazkur kamchiliklarni bartaraf etish hamda unga malakali yuridik yordam ko‘rsatilishiga xizmat qiladi.

Sharhanayotgan moddaning birinchi qismi to‘rtinchi bandiga asosan, jazo chorasi sifatida umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin bo‘lgan jinoyatlarni sodir etishda gumon qilinayotgan yoki ayblanayotgan shaxslarning ishi bo‘yicha ham advokat ishtiroki shart hisoblanadi. Bunda umrbod ozodlikdan mahrum qilish favqulodda jazo chorasi bo‘lib, mahkumni maxsus tartibli jazoni ijro etish kaloniyasiga joylashtirish orqali jamiyatdan muddatsiz ajratib qo‘yishdan iboratdir. Amaldagi qonunchilikka binoan faqatgina og‘irlashtiradigan holatlarda qasddan odam o‘ldirish (JK 97-moddaning ikkinchi qismi) hamda terrorizm (155-moddaning uchinchi qismi) uchun JPKning ushbu moddasi amal qiladi.

Sharhanayotgan moddaning birinchi qismining byeshinchi-yettinchi bandlariga ko‘ra, shaxslarning manfaatlari o‘zaro qarama-qarshi bo‘lib, ulardan aqalli biri himoyachiga ega bo‘lgan ishlar, davlat ayblovchisi yoki jamoat ayblovchisi ishtirok etayotgan ishlar hamda jabrlanuvchining vakili sifatida advokat ishtirok etayatgan ilarda ham himoyachi ishtirok etishi shart.

Bu to‘g‘risida Oliy sud Plenumining 2008 yil 3 fevraldag‘i “Sudlar tomonidan jinoyat ishlarini appelyasiya tartibida ko‘rish amaliyoti to‘g‘risida”gi 2-son Qarori 13-bandining uchinchi xatboshisi, 2008 yil 15 maydagi “Sudlar tomonidan jinyaot ishlarini kassasiya tartibida ko‘rish amaliyoti to‘g‘risida”gi 11-son Qarori 11-bandining uchinchi xatboshisi hamda Oliy sud Plenumining 2008 yil 15 maydagi 12-son Qarori 14-bandining uchinchi xatboshisiga ko‘ra, apellyasiya, kassasiya va takroran kassasiya “Sdlar tomonidan amaldagi qonunga binoan takroran kassasiya inchtansiyasi sudida prokurorning ishtiroki shart bo‘lib, bunday holda JPK 25-moddasining birinchi qismi hamda 51-moddasi birinchi qismining 6-bandi mazmunidan kelib chiqib, ushbu inchtansiyada moyachining ishtiroki ham ta’minlanishi shart. Shu sababli prokuror yoki himoyachi kelmagan hollarda ishning muhokamasi keyinga qoldirilishi kerak.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Sharhanayotgan modda birinchi qismining sakkizinchi bandiga ko‘ra, tibbiy yosindagi majburlov choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi ishlarda ham himoyachi ishtirok etishi shart. Bu borada Oliy sud Plenumining 2008 yil 12 dekabrdagi “Ruhiy kasallika chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash bo‘yicha sud amaliyoti to‘g‘risida”gi⁵ 23-son Qarori 11-bandining birinchi xatboshisiga muvofiq, JPK 51 va 571 moddalariga ko‘ra, aqli noraso holatida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etgan, shuningdek, jinoyat sodir etilgandan so‘ng ruhiy kasallika chalingan shaxslarga nisbatan tibbiy yo‘indagi majburlo choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi ishlar bo‘yicha sud-psixiatriya ekspertizasi tayinlash to‘g‘risidagi qarori chiqarilgan paytdan boshlab himoyachining ishtiroki majbur hisoblanadi.

Sharhanayotgan moddaning birinchi qismining to‘qqizinchi bandiga ko‘ra, appelyasiya hamda kassasiya instansiyalarida advokatning ishtirok etilishi shart.

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan holatlar yuasidan prokurorning ishtiroki shartligi hamda manfaatlar qarama-qarshiligi bois advokat ishtiroki shart hisoblanadi. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenum qarorlarida o‘z aksini topgan.

Sharhanayotgan moddaning ikkinchi qismiga ko‘ra, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud ishning murakkabligi va boshqa holatlari tufayli gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o‘z huquqlarini amalgashirishda qiyinalishi mumkin degan xulosaga kelsa, boshqa ishlar bo‘yicha ham himoyachining ishtirok etishini shart deb ko‘rsatilgan.

Xuddi shuningdek, moddaning uchinchi qismida keltirilgan asosga ko‘ra, advokat ishtiroki shart holatlar yuzasidan huquqni muhofaza qiluvchi organlar qarori yoki sudning ajrimiga asosan O‘zbekiston Respublikasi Advokatlar palatasining hududiy boshqarmasiga kelib tushagn paytdan 4 soatdan kechiktiray jinoyat ishi bo‘yicha himoyachining ishtirokini ta’minalash shart.⁶

⁵ Ўзбекистон Республикаси Олий суд Пленум қарори. 12.12.2008 й

⁶ Адвокатура тўғрисида”ги Қонун. 27.12.1996 й.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Jinoyat-prosessual qonunchiligidagi belgilangan ushbu norma gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchini himoyalanishga bo‘lgan huquqni o‘z vaqtida samarali ta’minlashga xizmat qiladi.

Xulosa: Yuqorida keltirilgan holatlardan advokat ishtiroki ta’minlanishi fuqarolarning huquq va manfaatlarini professional kasbiy malakaga ega korpus vakillari tomonidan himoya qilinishiga asos bo‘lib, jamiyat hayotida odillik, qonuniylik hamda insonparvarlik tamoyillarini ta’minlashda xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T: 08.12.1992 y
2. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat-prosessual kodeksi T: 22.09.1994 y
3. O‘zbekiston Respublikasi jinoyat kodeksi T: 22.09.1994 y
4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenum Qarori T: 15.09.2000 y
5. O‘zbekiston Respublikasi Oliy sud Plenum Qarori T: 19.03.2003 y